



## QANDLI DIABET KASALLIGINI DAVOLASH

---

*Sadullayeva Gulmira G'aybullo qizi*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, assistent*

*Namozov Alibek Asror o'g'li*

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, talabasi*

[Alibeknamozov32@gmail.com](mailto:Alibeknamozov32@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada qandli diabet kasalligi kelib chiqish sabablari va belgilari va tashxislash, xalq tabobati usulida davolashda qo'llaniladigan tabiiy dorivor o'simliklar, ularning kimyoviy tarkibi strukturaviy tuzilishi haqida ma'lumot berilgan. Qandli diabet kasalligini davolashda dorivor o'simliklardan foydalanish davolanishni samarali va organizm uchun foydali usullaridan biri deb hisoblanadi.

**Abstract.** The article provides information about the causes of development, the symptoms of diabetes mellitus and its diagnosis, about natural medicinal plants used in the treatment of traditional medicine, their chemical composition and structure. The use of medicinal herbs for diabetes is considered one of the most effective and beneficial methods of treatment.

**Kalit so'zlar.** Qandli diabet, biologik faol qo'shimcha, sintez, fitoterapevtik, oziq ovqat qo'shimchalari, kimyoviy tarkib, tashxislash, insulin, alfa hujayra, beta hujayra, delta hujayra.

**Keywords.** Diabetes mellitus, dietary supplement, synthesis, phototherapeutic, food additives, chemical composition, diagnostics, alpha cell, beta cell, delta cell.

Insonlar qadim zamonlardan beri kasalliklarni davolashda turli xil o'simliklarning qismlaridan foydalanib keladilar. O'zbekiston tibbiyotida qo'llaniladigan dorivor vositalarning 38-40 foizini o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba'zi og'ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlar (glikozidlar, alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroidlar, fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar) ni sintez qilish murakkab jarayondir. Hozirgi shidat bilan rivojlanayotgan davrda asabning buzilishiga olib keluvchi salbiy omillar talaygina, bu esa insonlarda turli kasalliklarni ko'payishga olib kelmoqda. Shunday kasalliklardan biri qandli diabet kasalligidir. Qandli diabet (diabet mellitus) yoki "qand kasalligi" asosan qand



almashinuvning buzilishi tufayli kelib chiqadi. Qondagi qand miqdori bir muncha ko'payadi va uzoq vaqtgacha siydik bilan ajralib turadi. Qandli diabet qattiq qo'rqish, hayajonlanish, uzoq muddat o'ylanish kabi hollarda oshqozon osti bezi tomonidan langergans orolchalarida ishlab chiqariladigan insulin miqdori kamayishi hisobiga kelib chiqadi. Qandli diabetni davolashda zamonaviy tibbiyot bilan birga xalq tabobati ham samaralidir. Oshqozon osti bezi toq a'zo bo'lib, oshqozon pastrog'ida qorin pardasi orqasida, o'n ikki barmoqli ichakning tushuvchi qismi yaqinida joylashgan. Katta odamda oshqozon osti bezi massasi 70 – 80 gr uzunligi 12-18 sm. Bezning ichki sekretiya qismi Langergans orolchalarida bo'lib, u bezning 1,52% ni tashkil etadi. Langergans orolchalarida  $\alpha$  hujayralar glyukagon,  $\beta$  hujayralar insulin,  $\beta$  hujayralar pankreatik polipeptid ishlab chiqaradi. Bundan tashqari VIP, gastrin, tiroliberin, somatostatin, somatoliberin ishlab chiqaruvchi hujayralar bor. Mazkur hujayralarda o'smalar paydo bo'lishi mumkin. Beta hujayralar vazifalari organizmda energiya gemostazini saqlashdir. Bu hujayralar energetik retseptorlari qonda kalorigen molekullari (glyukoza, aminokislotalar, keton tanachalari, yog' kislotalari) ning minimal o'zgarishlarini ham sezadi. Insulin organizmga kiruvchi ozuqa moddalarining singishi, metabolizmi va to'planishini bajaradi. U o'sish, rivojlanish, to'qimalar shakllanishida qatnashadi, uglevodlar, yog'lar va aminokislotalarga anabolik va antikatabolik ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo qonda parchalanmagan qand miqdorining ko'payishi organizmning quvvatsizlanishi, tez charchash, og'iz qurishi, siydikning tezlashishi, organizmning suyuqlikka bo'lgan talabi ortishi, ayrim hollarda vaznning kamayishi, umumiy holsizlik, kayfiyatning ko'tarilmasligi, tez qorin ochishi, oyoq-qo'llarning zirqirab og'rishi, mizojning susayishi kabi holatlar bezovta qiladi. Qon va siydik tarkibi tekshirilganda qand miqdori me'yoridan ortiqligi kuzatiladi. Chunki iste'mol qilingan oziq-ovqat tarkibidagi qand moddasini insulin muntazam parchalashi evaziga hosil bo'lgan biologik quvvat odam organizmiga energiya beradi. Oshqozon osti bezidan ajralib chiqayotgan insulin miqdorining kamayishi qonda parchalanmagan qand miqdorining nisbatan ko'payishiga va oqibatda organizmning umumiy quvvatsizlanishiga olib keladi. Qandli diabet kasalligiga aniq tashxis qo'yish uchun nahorda, nonushtadan 1 soat oldin yoki 3 soat keyin qon va siydikdagi qand miqdori tekshirilishi zarur. Ma'lumki, zamonaviy tibbiyotda qandli diabetni davolashda sintetik yo'llar bilan olingan manelin, amaril, insulin kabi o'nlab kimyoviy birikmalarni qabul qilish buyuriladi. Bu dorivor moddalarning barchasi qondagi qand moddasining hujayralarga oson o'tishini ta'minlaydi, evaziga qonda va siydikda qand miqdori kamayadi. Qondagi



qand miqdorini kimyoviy moddalar bilan kamaytirish oshqozon osti bezining insulin ishlab chiqarish faoliyati yanada susayishiga sabab bo'ladi. Uzoq muddat kimyoviy moddalarni qabul qilish oshqozon osti bezining atrofiyaga uchrashiga olib boradi. Kimyoviy dorivor moddalar to'xtatilishi bilan qonda qand miqdori ko'tarilib ketaveradi. Shuning uchun zamonaviy tibbiyotda qandli diabet bilan og'riganlarga muntazam dorivor moddalarni qabul qilish tavsiya etiladi. Xalq tabobatida qo'llanadigan dorivor vositalar esa oshqozon osti bezi faoliyatini faollashtiradi, bu organizmda ishlab chiqariladigan insulin miqdorini ko'paytirish orqali qonda qand miqdorini kamaytirishga qaratilgan. Shuning uchun qandli diabet kasalligi xalq tabobati uslublari yordamida davolanganda oshqozon osti beziish faoliyati tiklangandan so'ng dori-darmon ichishni to'xtatish imkonini beradi. Yurtimizda o'sayotgan har bir o'simliklar shifobaxsh o'simliklardir. Ularning tarkibini o'rganib kasalliklarni davolashda foydalanish bizning oldimizga qo'yilgan asosiy maqsadlardan biridir. Quyida ba'zi o'simliklarning asosiy kimyoviy tarkibi keltirilgan. Ular asosida qandli diabet kasalligini fitoterapevtik davolashda bilolgik faol oziq-ovqat qo'shilmalari tayyorlashda foydalanish mumkin. Momoqaymoq ildizi taraksasterol, tarakserol,  $\beta$ -amirin kabi triterpen birikmalar,  $\beta$ -sitosterin, stigmasterin, inulin kabi steroidlar, triglitseridlar, oqsillardan iborat. Inulin Arpa kraxmal 45,70%; oqsillar 7,26%; 7,11%; 1,7-2,0%; sellyuloza 3,5-7,0%; mikro vamakroelementlar 2,3% (fosfor, oltingugurt, kremniy, kaliy, natriy, magniy, kalsiy, temir, xlor) daniborat. Bexi bargi tarkibida B guruh vitaminlari, vitamin C, vitamin P, uglevodlar, pektin moddalari, organik kislotalar (limon olma kislotalari) mineral moddalar (kaliy, fosfor, kalsiy, mis) amigdalinglikazidi bor. Guli tarkibida vitamin C, efir moylari, 0,6 foizgacha oshlovchi moddalar, 5 foiz atrofida pektin, 3 foiz dan ortiqroq oranik kislotalar. Loviya qozog'i: B gurux vitaminlar, vitamin E, biotin, karotin. Biotin Karotin Makkajo'xori popugi: sitosterol, stigmasterol, efir moylari, glikozit, saponin, C va K vitaminlar, oranik kislotalar, mikroelementlar. Sarimsoq piyozida 0,3 % gacha alinin, 0,4 % gacha efir moyi, 0,06 % atrofida yog'li moy, fitosterin, azotli moddalar, fitonsidlar, anchagina miqdorda askorbinat kislota bor. Allistin Xalq tabobatidagi qandli diabetni davolashda buyuriladigan oziq-ovqat qo'shilmalari va damlamalarni hamma uchun bir xil deb aytish mumkin emas. Bunda ham eng avvalo bemorning mizoji inobatga olingan holda oshqozon osti bezi faolligining kuchayishiga olib keluvchi va qondaqand moddasining biologik parchalanishi evaziga organizmga quvvat beruvchi quyidagi oziq-ovqatlar va oziq-ovqat qo'shilmalaridan foydalanish tavsiya etiladi.



1.450 g oshqovoq bilab 200 g moshni birga eziltirib qaynatib tabga ko'ra iste'mol qilish.

2. 1 kg oshqovoqni qoqlab quritib, talqonlab 3 mahal 6 g dan iste'mol qilish mumkin.

3. Mumtazam ravishda oshqovoqni pishirib yeb yurish.

4. 10 g arpa bilan 10 g no'hotni ikki chini suvda yarmi qolgungacha qaynatib iste'mol qilish.

5. 50 g arpani 2 litr suvda yarim litr qolguncha past olovda qaynatib iste'mol qilinadi va suvi ichiladi.

6. Har kuni 1- 2 mahal qattiq zardobidan tabga ko'ra, 100- 200 ml miqdorda ichish naf beradi.

7. Uzum g'orasidan 20 - 30 donadan ovqatdan yarim soat oldin chaynab tashlash ham foydali.

8. Anjir bargini choy o'rnida damlab ichish kerak.

9. Tovuq go'shtini mumtazam iste'mol qilish lozim.

10. Piyozi suvini chiqarib asal va tuhum sarig'iga aralashtirib har kuni iste'mol qilish.

11. Yeryong'oqni sirkaga bir kecha botirib, quritib, bir mahal 3-4 donadan iste'mol qilish.

12. O'rik go'rasidan 50 dona, uzum go'rasidan 150 dona, behi go'rasidan 20 dona, yangipishgan nolidan 30 dona, ho'l qovoq etidan 30 gr, tut mevasidan 100 g, zafarondan 3 g olibqaynoq suvga solib yumshatib, ta'mini chiqarib, siqib, suzib, suviga zafaronni solib 2 mahal 10 ml dan ichish tavsiya etiladi.

13. 20 g olxo'ri qoqini qaynoq suvga damlab choy qilib ichish ham mumkin.

14. 10 g makkajo'xori popugi, 10 g anor guli, 10 g rayhonni birga damlab ichish kerak.

15. Torvuz po'chog'idan 12 g, ko'k oshqovoq po'chog'idan 12 g, achiq torvuzdan 12 gr olib qaynatib, 1- 2 mahal ichish mumkin.

16. Qizg'ish piyozi bug'da pishirib ta'bga ko'ra, iste'mol qilsa ham bo'ladi.

17. Qurtilgan jenshen, qichitqi o't, marjonni va suv 1:40 nisbatda olinadi hamda qaynatilib, 100ml dan 3 mahal iste'mol qilinadi.

18. Qoqigul, qichitqi o't, yovvoyi sachratqidan yoz faslida salatlar tayyorlab iste'mol qilinadi.

19. Zemlyanika barglaridan yoki mevalaridan 46 osh qoshiq kun bo'yi. 100 g suli donlaridan 3 stakan suvda tayyorlanadi va yarim piyola ovqatdan oldin 34 marta,



yoki lavr barglaridan 10 dona olib, 3 stakan qaynoq suv solib, 23 soat damlanib qo'yiladi va yarim piyoladan 23 marta ichiladi.

Qand kasalligi sharq xalq tabobat tarixida juda qadimdan ma'lum. Abu Ali ibn Sino budardga alohida e'tibor bergan. "Suv qanday ichilgan bo'lsa, shu holda chiqadi", deb tariflagan. Bemorning ko'p suv ichishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqaradi va bemor juda ozib ketadi. Davolarga to'xtab tabib: "bemorga sovuq mijozli suyuqliklar ichir, sovuq jomga sol, nordon ayronichir mevalar ber, yalpiz damlab ichir yani bemorni ho'la sovut," deydi. Bu kasallik odam badanida issiqlikning oshib ketishi tufayli paydo bo'ladi. Qand kasalligi tarixiy tibbiy manbalarga ko'ra, nasliy bo'lishi ham mumkin. Ko'pincha o'simliklarda turli xil mikroelementlar (temir, alyuminiy, marganets), organik kislotalar, alkaloidlar bo'lib, ular qonda glyukoza miqdorini pasaytiradilar. Ularni insulin, qand pasaytiruvchi tabletkalar, parhez bilan birga qo'llash mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki yurtimiz jannatmakon bu diyorda o'sayotgan juda ko'plab o'simliklarni dorivorlik xususiyati bor. Kasalliklarni davolashda tabiiy vositalardan foydalanish organizm uchun ko'proq foyda beradi shunday kasallilardan biri bu qandli diabet kasalligidir. Qandli diabetni davolashda yuqorida keltirib o'tilgan dorivor o'simliklardan foydalanish ham iqtisodiy ham jismoniy sog'lom bo'lishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Asqarov I.R. Tabobat qomusi. T.: Mumtoz so'z" – 2019 339 bet.
2. Asqarov I.R. Sirli tabobat. Fan va texnologiya nashiryoti-matba uyi. 2021. – 1010-bet.
3. Ismailov S. I. Endokrinologiyadan tanlangan maruzalar. – Toshkent – 2005 y.
4. Sobirova R. A, Abrorov O.A, Inoyatova F.X, Aripov A.N. Biologik kimyo. – Toshkent "Yangi asr avlodi" – 2006 y.
5. Abu Ali Ibn Sino "Tib qonunlari" 2- bob.
6. Qamchibek Kenja. Jasorat. – Toshkent "Tafakkur". – 2012 y.
7. Qayumov E.G'. Qandli diabetdan tuzalish mumkin. – Toshkent "Meditsina" – 1988y.
8. Ovchennikov Yu. A. Bioorganicheskaya ximiya. – M. Prosveshchenie. – 1987 y.
9. Safin M.G., Ro'ziyev Yu.S. Vitaminlar biokimyosi. – Toshkent. – 2010 y.
10. Muxtorov Muammad. Ming dardga ming davo. – Nasaf. – 2009 y.
11. Zohidov Homidjon. Shifo xazinasini. – Toshkent Yangi asr avlodi. – 2002 y.
12. To'rqulov Y.X. Biokimyo. – Toshkent "O'qituvchi". – 1970 y.